
“XOTINQUMI” MFYDA YANGI ELEKTR TARMOG‘I TORTILMOQDA

Ayni kunlarda Toshloq tumanida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va mavsumni betalofat o‘tkazish maqsadida puxta tayyorgarlik ishlari amalga oshirilmoqda. Tuman elektr ta‘minoti korxonasi mutaxassislari tomonidan hududlarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari qizg‘in olib borilmoqda. Elektr energiyasi ta‘minotini yaxshilash maqsadida belgilangan dasturlar doirasida joylarda keng ko‘lamli qurilish, ta‘mirlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Davlat dasturiga ko‘ra, “Xotinqumi” mahalla fuqarolar yig‘inidagi Mo‘jiza ko‘chasida yashovchi aholi xonadonlarining elektr energiyasi ta‘minoti sifatini yanada yaxshilash maqsadida 1 dona 250 kVa bo‘lgan yangi transformator, 150 dona temir-beton tayanchlari o‘rnatilib, 3 km.lik yangi SIP kabellari tortilmoqda. Ushbu davlat dasturi ijrosini ta‘minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar natijasida mahalladagi 200 ga yaqin xonadonlarning elektr energiyasi ta‘minoti yaxshilanmoqda.

2023-11-14 15:30:50